



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI

2026-yil 28-iyul

310-4-0-Q/26

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

**Qashqadaryo viloyati hokimligining 2026-yil II yarim yillik
ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, **“O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda **“Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta‘minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PF-223-son Farmonida belgilangan vazifalar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, xalq deputatlari viloyat Kengashi qarorlari ijrosini hamda hokimlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarning to‘laqonli bajarilishini ta‘minlash, ijro intizomini yanada mustahkamlash maqsadida **“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”**gi Qonunining 6-, 21¹-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2026-yil 16-iyuldagi **“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil II yarim yilligi ish rejasini to‘g‘risida”**gi 78-son bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Viloyat hokimligining 2026-yil II yarim yillik ish rejasini **ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.
3. Quyidagi muhim hujjatlar ijrosini ta‘minlash viloyat hokimi o‘rinbosarlari, viloyat hokimligi apparati bo‘linmalari, viloyatdagi davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalari etib belgilansin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2026-yil uchun belgilab berilgan ustuvor vazifalar;

“O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sinh va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-martdagi “Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi PQ-96-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6166-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-117-son Farmoni;

Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2024-yil 10-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakat dasturi ijrosini samarali va natijador tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 136-son bayoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 2026-yil II yarim yillik ish rejasida belgilangan vazifa va topshiriqlar.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari va maslahatchilari, hokimlik apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari, viloyat boshqarmalari rahbarlari, tuman va shaharlar hokimlari bilan birgalikda:

viloyat hokimligining 2026-yil II yarim yillik ish rejasi ijrosining bajarilishini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlarining bajarilishini ta’minlashda ijro intizomiga qat’iy rioya qilish va uni yanada mustahkamlash;

“O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq:

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli islohotlarni 2026-yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish;

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasini amalga oshirish doirasida 2026-yil uchun belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga o‘z vaqtida, to‘laqonli va sifatli erishilishini ta‘minlash, tuman va shahar hokimlari, boshqarmalar rahbarlari va ularning o‘rinbosarlarining bu boradagi **mas’uliyati va shaxsiy javobgarligini oshirish** hamda **faoliyatini baholash tizimini takomillashtirish maqsadida** mutasaddi rahbarlar faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI), samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish bo'yicha **“yo‘l xaritalar”** hamda mutasaddi rahbarlar qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga asosiy e’tiborni qaratgan holda boshqarmalar hamda tuman va shahar hokimliklarining 2026-yil II yarim yilligi uchun ish rejalarini tasdiqlash.

5. Viloyat hokimligining 2026-yil II yarim yillikka mo‘ljallangan ish rejasi talablariga qat’iy rioya etilsin.

a) **2026-yil 10-avgustga qadar** - tegishli boshqarmalar, idoralar, shahar (tuman)lar hokimliklarining 2026-yil II yarim yillik ish rejalarini tartibga solish bo‘yicha kompleks tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirilsin;

b) **doimiy va tizimli asosda** - hokimliklar apparati va idoraviy mansub tarkibiy bo‘linmalarda ijro intizomining holatini tanqidiy o‘rganib chiqilishini ta‘minlash;

v) **2027 yil 15-yanvarga qadar** viloyat hokimligi apparatining tegishli tarkibiy bo‘limlariga 2026-yil II yarim yilligi ish rejasining bajarilishi to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlarni taqdim etish topshirilsin.

6. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari va maslahatchilari, hokimlik apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlariga:

viloyat hokimi va uning o‘rinbosarlari rahbarlik qiladigan amaldagi komissiyalar (kengashlar, ishchi guruhlar va boshqalar) faoliyatini, ularning maqsadli vazifalarini o‘z vaqtida va to‘liq hajmda bajarilishini tashkil qilish;

yagona idoralararo ijro intizomi elektron tizimi (ijro.gov.uz) orqali kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijrosini o‘z muddatida sifatli va to‘liq amalga oshirilishini ta‘minlash, ushbu jarayonlarda hujjatlarning amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq to‘g‘ri rasmiylashtirilishiga alohida e’tibor qaratish;

2026-yil II yarim yillik ish rejasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumat, viloyat hokimi topshiriqlari hamda funksional vazifalardan kelib chiqqan holda oylik

ish rejalarini samarali va oqilona rejalashtirish, komplekslar tarkibiga kiruvchi boshqarma, korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari, shahar, tumanlar hokimliklarining ishlari rejalashtirilishiga, ularning har oylik ish rejaları tasdiqlanishi va bajarilishi natijadorligiga nisbatan talabchanlikni kuchaytirish choralarini ko‘rish;

7. Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi (F.Ergashev) va ijro intizomi nazorati bo‘limi (A.Erkayev):

Vazirlar Mahkamasining tegishli departamentiga **2027-yil 20-yanvarga qadar 2026-yil II yarim yillik** ish rejasining bajarilishi to‘g‘risidagi axborotni va **2027-yil I yarim yillik** ish rejasi loyihasi yuzasidan takliflar taqdim etsinlar.

8. Belgilab qo‘yilsinki, viloyat hokimining o‘rinbosarlari va maslahatchilari, hokimlik apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari ish rejada belgilab qo‘yilgan vazifa va masalalarning o‘z vaqtida to‘liq bajarilishini ta‘minlash bo‘yicha shaxsan mas‘uldirlar.

9. Mazkur qaror ijrosining nazorati viloyat hokimining o‘rinbosarlari, viloyat hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘limi (A.Erkayev) zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyati hokimining
2026-yil 28-iyuldagi
310-4-0-Q/26-son qaroriga
1-ilova

**Viloyat hokimining iqtisodiyot, sanoat, moliya-bank, soliq, davlat aktivlari, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash
va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari kotibiyatining
2026-yil II yarim yillik
ISH REJASI**

№	T/R	Ustuvor vazifalar va o'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar <i>(boshqarma, tashkilotlar, hokimliklar, Kotibiyat rahbariyati va mutaxassisleri)</i>
I. "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturini amalga oshirishga oid ustuvor vazifalar				
"Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturini amalga oshirishga oid vazifalar				
1.	1.	"O'zbekiston-2030" strategiyasini "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish, muntazam ravishda muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish.	II yarim yillikda	J.Arslonov, N.Qurbonov I.Salomov, Sh.Erboyev Tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar.
2.	2.	Sanoatda mehnat unumdorligini va energiya samaradorlikni ikki karra oshirish ishlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilish.	dekabr	J.Arslonov, Tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar.

3.	3.	2030-yilgacha mo'ljallangan sanoat sohasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish ishlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilish.	dekabr	J.Arslonov, Tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar.
4.	4.	Viloyatda kambag'allik darajasini qisqartirish va aholini daromadli mehnat bilan band qilish ishlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilish.	har chorak	J.Arslonov, N.Qurbonov, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari
5.	5.	Hududlarda tadbirkorlik subyektlari bilan uchrashuvlar tashkil qilish.	har oyda	J.Arslonov, I.Salomov Savdo-sanoat palatasi, Tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida 2026-yil uchun belgilab berilgan ustuvor vazifalar				
6.	1.	2026-yilda iqtisodiyotda o'sishni ta'minlash va yalpi ichki mahsulotni belgilangan rejaga yetkazish choralari ko'rish.	II yarim yillikda	J.Arslonov, N. Qurbonov I. Salomov, Sh. Erboyev Tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar.
7.	2.	2026-yilda aholini doimiy ish bilan ta'minlash va oilani kambag'allikdan chiqarish orqali kambag'allik va ishsizlik darajasini belgilangan foizga tushirish choralari ko'rish.	har chorak	J.Arslonov, N. Qurbonov I. Salomov, Sh. Erboyev Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturini amalga oshirishga oid ustuvor vazifalar				
8.	1.	Iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar tarkibida muammoli kreditlarni kamaytirish orqali bank tizimida moliyaviy	II yarim yillikda	I.Salomov, Sh.Erboyev Markaziy bank viloyat Bosh

		barqarorlikni ta'minlash.		boshqarmasi.
9.	2.	Tashabbusli budjet doirasida aholi va davlat ishtirokida sherikchilik loyihalarini amalga oshirishni yo'lga qo'yish.	II yarim yillikda	J.Arslonov, N.Qurbonov Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
10.	3.	Qurilish sohasida yashirin iqtisodiyotni qisqartirish choralarini ko'rish. Bunda: solliqlar to'g'ri hisoblanishini ta'minlash maqsadida sohada bozor narxlaridan kelib chiqib soliq bazasini aniqlash; solliq to'lamagan, takroran qonunbuzilishi holatlariga yo'l qo'ygan korxonalarning davlat xaridlari va tenderlarida ishtirokini cheklash; yashirilgan ish o'rinlari uchun javobgarlikni oshirishni nazarda tutish.	Noyabr	J.Arslonov, N.Qurbonov Viloyat solliq boshqarmasi, Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi viloyat boshqarmasi, Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi.
11.	4.	2026-2028-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlarida belgilangan prognoz ko'rsatkichlar ijrosini o'rganish.	har chorak	J.Arslonov, N. Qurbonov I. Salomov, Sh. Erboyev Tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar.
12.	5.	Hududlarda savdo, maishiy, sayilgoh va ko'ngilochar xizmatlarini rivojlantirish maqsadida bo'sh yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish choralarini ko'rish.	II yarim yillikda	J.Arslonov, I. Salomov Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
II.O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari,qarorlari, farmoyishlari, bayonlari va Hukumat qarorlari, farmoyishlari, bayonlari bilan yuklatilgan vazifalar ijrosini maqsadli o'rganish				
13.	1.	"O'zbekiston-2030" strategiyasini "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" da amalga	har oy	J.Arslonov, N. Qurbonov

		oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish, muntazam ravishda muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish.		I. Salomov, Sh. Erboyev Tegishli topshiriqlarning ijrosiga mas'ul etib belgilangan boshqarma va tashkilotlar
14.	2.	Tijorat banklarining aktivlari sifati hamda bank balansiga olingan mol-mulklarning sotilishi va muammoli aktivlar bo'yicha yaratilishi lozim bo'lgan zaxiralar holati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish.	har chorak	J.Arslonov, I.Salomov, Sh. Erboyev Markaziy bank va tijorat banklari
15.	3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 26-dekabrda PQ-387-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini o'rganish.	har chorak	N.Qurbonov, Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari
16.	4.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni va 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori doirasida "Ijro.gov.uz" elektron tizimida nazoratga olingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va bayonlari topshiriqlar ijrosini bajarilishida amaliy yordam ko'rsatish.	har hafta	J.Arslonov, N.Qurbonov, I.Salomov, Sh. Erboyev Tegishli topshiriqlarning ijrosiga mas'ul etib belgilangan boshqarma va tashkilotlar
17.	5.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va bayonlari bilan yuklatilgan vazifalar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash maqsadida "Ijro.gov.uz" elektron tizimida nazoratga olingan topshiriqlar ijrosini kunlik tashkil etish bo'yicha kalendar grafik va rahbar o'rinbosarlarining "yo'l xaritasi" ni tasdiqlanishini hamda ijrosini nazorat qilish.	har oy	J.Arslonov, I.Salomov, Tegishli topshiriqlarning ijrosiga mas'ul etib belgilangan boshqarma va tashkilotlar
18.	6.	2026-yilda aholini doimiy ish o'rinlariga joylashtirish	har oy	J.Arslonov, N.Qurbonov,

		hamda aholini daromadini oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosiga mas'ullar tomonidan o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish.		I.Salomov, Sh. Erboyev Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi, Markaziy bank, tuman shahar hokimliklari
19.	7.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 30-avgustidagi PQ-308-son qarorini ijrosini nazorat qilish.	oktabr	J.Arslonov, N. Qurbonov I.Salomov, Sh. Erboyev Tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar.
III.Ijtimoiy soha, iqtisodiyot tarmoqlari va respublika hududlarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligining tahlili				
20.	1.	2026-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarida (KPI) belgilangan rejalarning ijrosini tahlili	har chorak	J.Arslonov, N. Qurbonov I.Salomov, Sh. Erboyev Tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar.
21.	2.	"O'zbekiston-2030" strategiyasini "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish, muntazam ravishda muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish.	II yarim yillikda	J.Arslonov, N. Qurbonov I.Salomov, Sh. Erboyev Tegishli topshiriqlarning ijrosiga mas'ul etib belgilangan boshqarma va tashkilotlar
22.	3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni va "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori ijrosini tahlil qilish.	II yarim yillikda	J.Arslonov, I.Salomov, Tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar, tuman, shahar hokimliklari
23.	4.	Hududlarda savdo, maishiy, sayilgoh va ko'ngilochar xizmatlarini rivojlantirish maqsadida bo'sh yer	II yarim yillikda	I.Salomov, Sh.Erboyev Davlat aktivlarini boshqarish

		uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish choralarini ko'rish.		agentligining viloyat hududiy boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari
24.	5.	Banklar tomonidan muammoli kreditlarni undirish borasida ko'rilyotgan choralar natijadorligi tahlili.	har chorak	J.Arslonov, I.Salomov Sh.Erboyev, Markaziy bank viloyat Bosh boshqarmasi va tijorat banklari
IV. Viloyat hokimligi majlislarida ko'rib chiqish (majlis, sayyor majlis, taqdimot)				
25.	1.	2026-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarida (KPI) belgilangan rejalarning ijrosini ko'rib chiqish.	har chorak (hisobot oyining 20 sanasiga)	J.Arslonov, N. Qurbonov I.Salomov, Sh. Erboyev Tegishli topshiriqlarning ijrosiga mas'ul etib belgilangan boshqarma va tashkilotlar
26.	2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida tuman (shahar) va mahallalarni aholining yashashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun namunali hududga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 8-oktabrdagi PQ-298-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosiga mas'ul boshqarma va tashkilotlar tomonidan o'z vaqtida bajarilishini tanqidiy ko'rib chiqish.	reja-jadval asosida	J.Arslonov, N.Qurbonov I.Salomov, Sh.Erboyev viloyat statistika boshqarmasi, Tuman va shahar hokimliklari
V. Ijtimoiy soha, iqtisodiyot tarmoqlari hududlarida islohotlarning amalga oshirilishini viloyat hokimligida ko'rib chiqish (majlis, sayyor majlis, taqdimot)				
27.	1.	Soliq ta'limi va targ'ibotini rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni hamda kelgusidagi vazifalar to'g'risida.	avgust	J.Arslonov, N.Qurbonov I.Salomov, Sh.Erboyev Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi,

				tuman va shahar hokimliklari
28.	2.	2026-yilda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirish yuzasidan boshqarma va tashkilotlar hamda tuman va shahar hokimliklari rahbarlarining mas'uliyati to'g'risida	avgust	J.Arslonov, N.Qurbonov I.Salomov, Sh.Erboyev Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Markaziy bank viloyat Bosh boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari
29.	3.	Tijorat banklarining muammoli kreditlarini kamaytirish yuzasidan tijorat banklari hamda mahalliy hokimliklar rahbarlarining mas'uliyati to'g'risida.	oktabr	I.Salomov, Sh.Erboyev Markaziy bank viloyat Bosh boshqarmasi, Tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar
30.	4.	2026-yil 2-yarim yil uchun belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarning iqtisodiy kompleks tarkibidagi tashkilotlar tomonidan bajarilishi, shu jumladan budjet tushumlarini ta'minlash va xarajatlarning maqsadli moliyalashtirilishi to'g'risida.	avgust	J.Arslonov, N.Qurbonov I.Salomov, Sh.Erboyev Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar
VI. Viloyat hokimligi majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalar				
31.	1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va bayonlaridagi topshiriqlarning ijrosini ta'minlash natijalari to'g'risida.	reja-jadval asosida	J.Arslonov, N.Qurbonov I.Salomov, Sh.Erboyev Tegishli topshiriqlarning ijrosiga mas'ul etib belgilangan boshqarma va viloyat boshqarmalari va tashkilotlar
32.	2.	2026-yilda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha belgilangan vazifalar va maqsadli ko'rsatkichlar ijrosini muhokama qilish.	reja-jadval asosida	J.Arslonov, N.Qurbonov I.Salomov, Sh.Erboyev Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi,

				Markaziy bank, tuman, shahar hokimliklari
33.	3.	Iqtisodiy kompleks tarkibidagi tashkilotlarning rahbarlari ishtirokida 2026-yil ko'rsatkichlarini muvaffaqiyat bilan bajarish , budget tushumlarini ta'minlash, xarajatlarni maqsadli ishlatilishi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni muhokama qilish.	reja-jadval asosida	J.Arslonov, N.Qurbonov I.Salomov, Sh.Erboyev Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, tegishli viloyat boshqarmalari va tashkilotlar
34.	4.	Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va 2026-yil prognoz ko'rsatkichlarini ta'minlash masalalarini muhokama qilish.	reja-jadval asosida	J.Arslonov, N.Qurbonov I.Salomov, Sh.Erboyev Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, tuman, shahar hokimliklari

Qashqadaryo viloyati hokimining
2026-yil 28-iyuldagi
310-4-0-Q/26-son qaroriga
2-ilova

**Viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari kotibiyatining
2026-yil II yarim yillikka mo‘ljallangan
“ISH REJASI”**

№	Chora-tadbirlar va ustuvor vazifalar	Ijro muddati	Mas’ullar
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 19-20-iyun kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan majlis bayoni ijrosini ta’minlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar tahlili.	II yarim yillikda	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati Xasanov E.U., kotibiyat mutaxassislari
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-martdagi “Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi PQ-96 – son Qarorida kelib chiqadigan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	II yarim yillikda	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati Xasanov E.U., kotibiyat mutaxassislari
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Suv xo‘jaligi sohasida bozor mexanizmlarini keng joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2026-yil 26-maydagi PF-99-	II yarim yillikda	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati

	sonli Farmonida belgilangan ustufor vazifalarni o'z vaqtida sifatli bajarishini ta'minlash.		Xasanov E.U., kotibiyat mutaxassislari
4.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-iyundagi "Sanoat usulidagi intensiv mevali bog'lar barpo etish va eskirgan bog'larni yangilashni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-108 – son Farmonidan kelib chiqadigan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	II yarim yillikda	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari kotibiyati Xasanov E.U., kotibiyat mutaxassislari
5.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-iyundagi "Paxta-to'qimachilik sohasida moliyaviy barqarorlikni oshirish hamda to'lani chuqur qayta ishlashni qo'shimcha qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 246 – son qaroridan kelib chiqadigan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	II yarim yillikda	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari kotibiyati Xasanov E.U., kotibiyat mutaxassislari
6.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2026 yil 04 iyuldagi "Baliqchilik tarmog'ini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-122-son Farmonidan kelib chiqadigan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	II yarim yillikda	Boshqarma, tashkilot va korxonalar, qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari kotibiyati Xasanov E.U., kotibiyat mutaxassislari
Paxta, texnik, moyli, don dukkakli va dorivor o'simliklarni rivojlantirish			

1	1. G'o'za maydonlarida o'rtacha 2-3-marta qator orasiga ishlov berish (<i>kultivatsiya</i>), tadbirlarini tizimli amalga oshirish. 2. Tarkibida makro va mikro elementlarga boy bo'lgan preparatlar (biostimulyatorlar) bilan suspenziya usulida bargdan oziqlantirish hamda o'simlik o'sishini boshqaruvchi preparatlar bilan ishlov berish ishlarini amalga oshirish. 3. Hududlarda xorijiy g'o'za navlarini ekib yetishtirilayotgan subyektlarning maydonlariga olim va mutaxassislarni biriktirgan holda agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar, amaliy yordam ko'rsatish. Bunda, g'o'za maydonlarida doimiy ravishda monitoring tadbirlarini olib borish. 4. Xorijiy g'o'za maydonlarda qochoq (boshpana) zonalarini hamda urug'lik olish uchun yetishtirilayotgan maydonlarda "himoya" zonalarini nazorat qilish. 5. G'o'za maydonlarini begona o'tlardan tozalash (chopiq) ishlarini samarali tashkil etish; 6. G'o'za navlarining o'sib rivojlanishidan kelib chiqib, mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish ishlarini tashkil etish; Bunda, 5-6 ta chinbarg davrida gektariga sof holda 70-80 kg azotli (<i>ammiakli selitra 150-200 kg/ga yoki karbomid (mochevina) 100-150 kg/ga yoki ammoniy</i>	avgust	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (O.Boymirov), Agroinspeksiyaning viloyat boshqarmasi (S.Donayev) O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (G'.Jo'rayev), "Urug'chilikni rivojlantirish markazi" DM viloyat boshqarmasi (Sh.Sultonov) Viloyat Fermerlar Kengashi (J.Abdunazarov), Barcha tuman xokimliklari
---	---	--------	--

	<i>sulfat 250 kg/ga</i>); G'o'za shonaga kirganda gektariga sof holda 100-120 kg azot va 50-60 kg kaliy; G'o'za gulga kira boshlagan paytda gektariga sof holda 50 kg azotli (<i>ammiakli selitra 120-150 kg</i>) va 50-60 kg fosforli (<i>ammofos 110-130 kg yoki oddiy superfosfat 275-330 kg yoki suprefos 215-250 kg yoki PS-Agro 125-150 kg</i>) o'g'itlarni qo'llash; 7. Hududlarning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, sug'orish ishlarini tizimli tashkil etish;		
2	1.Mavjud 1737 ta kultivatorlardan samarali foydalangan (<i>baliq sirti qilib o'ragan</i>) holda g'o'za qator oralariga 1-2-marta ishlov berish (<i>kultivatsiya</i>) tadbirlarini sifatli amalga oshirish. 2. Zamonaviy intensiv (Shinjon) agrotexnologiyalar asosida yetishtirilayotgan hududlarda 39,1 ming gektar g'o'za maydonlariga agrotexnik tadbirlarni samarali tashkil etish; 3. G'o'za maydonlarini begona o'tlardan tozalash (chopiq) ishlarini samarali tashkil etish; 4. Hududlarning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, 3-sug'orish ishlarini tizimli tashkil etish; 5. Mahalliy g'o'za navlarining o'sib-rivojlanishidan	avgust	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (O.Boymirov), Agroinspeksiyaning viloyat boshqarmasi (S.Donayev) O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (G'.Jo'rayev), “Urug'chilikni rivojlantirish markazi” DM viloyat boshqarmasi (Sh.Sultonov) Viloyat Fermerlar Kengashi (J.Abdunazarov),

	kelib chiqib, chilpish (chekanka) tadbirini sifatli va tizimli tashkil etish; Bunda, chilpishni qo'lda, mexanizm yordamida yoki tarkibida mepikvat xlorid bo'lgan retardantlardan muddatida va me'yorida foydalangan holda kimyoviy usulda amalga oshirish; 6. Hududlarning tuproq-iqlim sharoiti, g'o'zaning o'sib rivojlanishidan kelib chiqib, ruxsat etilgan defoliantlardan samarali foydalangan holda g'o'za defoliatsiya tadbirlarini tizimli va sifatli tashkil etish. 7. Paxta yig'im-terimiga tayyorgarlik ko'rish, terim otryadlarini shakllantirish, texnika va mexanizmlarni mavsumga shay holatga keltirish.		Barcha tuman xokimliklari
3	1. Hududlarning tuproq-iqlim sharoiti, g'o'zaning o'sib rivojlanishidan kelib chiqib, ruxsat etilgan defoliantlardan samarali foydalangan holda g'o'za defoliatsiya tadbirlarini yakunlash. 2. Paxta yig'im-terimiga tayyorgarlik ko'rish, terim otryadlarini shakllantirish, texnika va mexanizmlarni mavsumga shay holatga keltirish. 3. Paxta xom ashyosini yig'ib-terib olishni va kunlik ma'lumotlarni muvofiqlashtirish bo'yicha "Monitoring shtabi"ni tashkil etish. 4. Paxta hosilini elektron tarozilar orqali "Hosil-qabuli" axborot tizimida aks ettirib borilishini nazoratga	sentyabr	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (O.Boymirov), Agroinspeksiyaning viloyat boshqarmasi (S.Donayev) O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (G'.Jo'rayev), "Urug'chilikni rivojlantirish markazi" DM viloyat boshqarmasi (Sh.Sultonov) Viloyat Fermerlar Kengashi

	olish hamda kunlik monitoringini yuritish. 5. Terimga tushgan fermer xo'jaliklari, terilgan va qolgan maydonlar, terimchilar soni, mashina terimi va boshqa tezkor ma'lumotlarni muvofiqlashtirish va kunlik hisobini yuritish.		(J.Abdunazarov), Barcha tuman xokimliklari
4	1. Paxta hosilini elektron tarozilar orqali "Hosil-qabuli" axborot tizimida aks ettirib borilishini nazoratga olish hamda kunlik monitoringini yuritish. 2. Terimga tushgan fermer xo'jaliklari, terilgan va qolgan maydonlar, terimchilar soni, mashina terimi va boshqa tezkor ma'lumotlarni muvofiqlashtirish va kunlik hisobini yuritish. 3. Soha olimlari va mutaxassislari bilan birgalikda "Paxtachilikda kuz-qish oylarida amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlar bo'yicha" tavsiyalar ishlab chiqish hamda paxta yetishtiruvchilarga yetkazish.	sentyabr- noyabr	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (O.Boymirov), Agroinspeksiyaning viloyat boshqarmasi (S.Donayev) O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (G'.Jo'rayev), "Urug'chilikni rivojlantirish markazi" DM viloyat boshqarmasi (Sh.Sultonov) Viloyat Fermerlar Kengashi (J.Abdunazarov), Barcha tuman xokimliklari
5	1. Qashqadaryo viloyatida 2027-yil paxta hosili uchun g'o'za navlarini joylashtirish takliflarini ishlab chiqish; - o'tgan yilda erishilgan natijalar asosida ijobiy natijalar ko'rsatgan navlar maydonini kengaytirish; - so'nggi 2 yilda ekilgan g'o'za navlarining hosildorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish hamda	noyabr-dekabr	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (O.Boymirov), Agroinspeksiyaning viloyat boshqarmasi (S.Donayev) O'simliklar karantini va

	hosildorligi yuqori bo'lgan tezpishar, qurg'oqchilikka va sho'rga chidamli navlarni tanlash. 2. Hududlarda kuz-qish mavsumida paxta maydonlarida yer tekislash, pushta olish agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish.		himoyasi boshqarmasi (G'.Jo'rayev), “Urug'chilikni rivojlantirish markazi” DM viloyat boshqarmasi (Sh.Sultonov) Viloyat Fermerlar Kengashi (J.Abdunazarov), Barcha tuman xokimliklari
G'allachilik va dukkakli don ekinlari bo'limi			
1	1. 2026-yil hosili uchun ekilgan boshqoli don ekinlarini o'rim-yig'im ishlarini yakuniy hisob-kitobini yakunlab, yig'ilishlarda muhokama qilish va rahbariyatga taqdim etish. 2. Viloyat hududlarida ertangi ekinlar va g'alladan bo'shagan maydonlarga takroriy ekin sifatida jami 81,0 ming gektar shundan, 17,0 ming gektar sabzavot, 5,0 ming gektar kartoshka, 4,7 ming gektar poliz, 2,9 ming gektar moyli, 11,1 ming gektar dukkakli, 28,4 ming gektar oziqa ekinlari va 11,9 ming gektar boshqa ekinlar ekilishini kunlik monitoring qilish. 3. Takroriy ekilgan dukkakli va moyli ekinlar vegetatsiya davrida o'suv davrlari, sug'orish, mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish ishlarini monitoringini yuritish.	avgust	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (O.Boymirov), Agroinspeksiyaning viloyat boshqarmasi (S.Donayev) O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (G'.Jo'rayev), Barcha tuman hokimliklari
2	1. Hududlardan 2027-yil hosili uchun kuzgi boshqoli don ekinlarini joylashtirish bo'yicha takliflar olish.	avgust	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

	2. Olingan takliflarga asosan talab etiladigan urug'lik don, fosforli va kaliyli mineral o'g'itlar, urug'lik, yonilg'i moylash vositalar hajmlari hamda ularga ajratiladigan imtiyozli kredit mablag'lar hisob-kitobini qilish. 3. Hukumat bayon loyihasini ishlab chiqish hamda tasdiqlatish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 4. G'o'za qator orasiga g'alla ekish uchun tumanlarda mavjud kultivator moslamalarni markazlashgan xolda yig'ib, ta'mirlash ishlarini tashkil etish.		(O.Boymirov), Agroinspeksiyaning viloyat boshqarmasi (S.Donayev) O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (G'.Jo'rayev), “Urug'chilikni rivojlantirish markazi” DM viloyat boshqarmasi (Sh.Sultonov) Viloyat Fermerlar Kengashi (J.Abdunazarov), Barcha tuman hokimliklari
3	1. G'alla ekishga yer tayyorlashda ochiq maydonlarni lazerli tekislash. 2. Ochiq maydonlarga g'alla ekish rejalashtirilgan maydonlarda zamonaviy don ekish seyalkalar orqalida amalga oshirish. 3. G'alla maydonlarini ekish uchun sof holda gektariga 90-110 kg.dan fosforli va 60-100 kg.dan kaliyli mineral o'g'itlar bilan ta'minlash choralarini ko'rish. 4. G'o'za qator orasiga g'alla ekishga yer tayyorlash va ekish ishlarini monitoring qilish. 5. G'alla ekilgan suvli maydonlarda 50-60 metr uzunlikda ko'ndalang o'qariqlar olish hamda peshma-	sentyabr-oktyabr	(U.Uzoqov) Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (O.Boymirov), Agroinspeksiyaning viloyat boshqarmasi (S.Donayev) Viloyat Fermerlar Kengashi (J.Abdunazarov), Barcha tuman hokimliklari

	pesh sharbat bilan sug'orishni tashkil etish va bir tekis ko'chat undirib olish. 6. Takroriy dukkakli don hamda moyli ekinlar hosilini o'rim-yig'imini monitoring qilish.		
4	1. Erta muddatlarda ekilgan g'alla maydonlarini kuzgi azot yetishmovchiligini oldini olish maqsadida gektariga fizik xolda 100-150 kg.dan azotli mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish ishlarini monitoring qilish. 2. G'o'za qator orasiga ekilgan g'alla maydonlarini g'o'zapoyalardan tozalash ishlarini tashkil etish. 3. Dukkakli don va moyli ekinlar o'rim-yig'imi yakuni bo'yicha raxbariyatga ma'lumot taqdim etish 4. Ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari bilan hamkorlikda "G'allani kuz va qish oylaridagi parvarishi" bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar va maqolalar tayyorlab, g'alla yetishtiruvchi fermer va dehqon xo'jaliklariga yetkazib berish.	noyabr-dekabr	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (O.Boymirov), Agroinspeksiyaning viloyat boshqarmasi (S.Donayev) O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (G'.Jo'rayev), tumanlar hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosarlari
Zamonaviy sug'orish agrotexnologiyalarini joriy qilish			
1	1. 2026-2030-yillarda Qashqadaryo viloyatini qishloq xo'jaligida suv tanqisligi sharoitida hamda yer resurslari imkoniyatlarini hisobga olgan holda innovatsion rivojlantirish dastur ijrosini o'rganish va tahliliy ma'lumotlar tayyorlash. 2. Zamonaviy sug'orish agrotexnologiyalarni joriy qilish orqali suvni iqtisod qilish tadbirlarini amalga	avgust	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (O.Boymirov), Agroinspeksiyaning viloyat boshqarmasi (S.Donayev) tumanlar hokimlarining qishloq va suv

	oshirish. 3. 2026-yilda joriy qilingan suv tejovchi texnologiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni Geoportalga kiritish ishlarini tashkil qilish. 4. Suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilgan tashabbuskorlarga belgilangan tartibda "Agrosubsidiya" AT orqali subsidiya mablag'larini ajratib berilishini monitoring qilish.		xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosarlari
Suv resurslari balansi va suvdan foydalanish			
1	1. 2026-yil hosili uchun ekilgan g'o'za maydonlarida sug'orish grafiklari ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. 2026-yil hosili uchun ekilgan g'o'za maydonlarini sug'orish ishlari bo'yicha monitoring yuritish.	avgust	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (O.Boymirov), Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i (F.Siddiqov) tumanlar hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosarlari
2	1. 2027-yil hosili uchun boshoqli don ekinlarini birinchi sug'orish grafiklarini ishlab chiqish. 2. Grafikka asosan boshoqli don ekinlarini sug'orish ishlarini tashkil qilish.	sentyabr	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (O.Boymirov), Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i (F.Siddiqov) tumanlar hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosarlari

3	1. 2026-yil hosili uchun boshqali don ekinlariga yomg'irlatib sug'orish texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha manzilli ro'yxatlarni shakllantirish. 2. Manzilli ro'yxatga asosan yomg'irlatib sug'orish texnologiyalarini joriy qilish uchun kredit mablag'larini ajratish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish.	oktyabr	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (O.Boymirov), Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i (F.Siddiqov) tumanlar hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosarlari
4	1. 2026-2027-yillar kuzgi-qishki mavsumda ichki ariqlarni qo'l kuchi va mexanizmlar bilan tozalash bo'yicha manzilli ro'yxatlarni shakllantirish. 2. 2026-2027-yillar kuzgi-qishki mavsumda ichki ariqlarni betonlashtirish bo'yicha manzilli ro'yxatlarni shakllantirish.	noyabr	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (O.Boymirov), Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i (F.Siddiqov) tumanlar hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosarlari
5	1. 2026-2027-yillar kuzgi-qishki mavsumi uchun belgilangan suv olish limitlari doirasida qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida yer tayyorlash grafiklarini ishlab chiqish 2. Ishlab chiqilgan grafiklarga asosan yer tayyorlash ishlari bo'yicha monitoring yuritish.	dekabr	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (O.Boymirov), tumanlar hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosarlari
6	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 7-noyabr kuni	II yarim yillikda	Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i (F.Siddiqov)

	kengaytirilgan tarzda “Qishloq xo‘jaligida suv va energiya resurslaridan oqilona foydalanish va yo‘qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 48-sonli videoselektor yig‘ilish bayonida berilgan topshiriqlarga asosan suv solig‘idan 40 foizi hisobidan “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari hisobidagi sug‘orish tarmoqlarini betonlashtirish ishlari uchun sement xarid qilishga yo‘naltirilgan mablag‘lardan samarali foydalanilishini tahlil qilish.		Barcha tuman hokimliklari
7	Suvni iqtisod qilish, sug‘orish tarmoqlarida suv yo‘qotilishini kamaytirish. Buning uchun irrigatsiya tarmoqlarining foydali ish ko‘yeffitsentini 0,66 dan - 0,67 ga oshirish, suv ta‘minoti darajasi past bo‘lgan sug‘oriladigan yer maydonlar ulushini 10 foizdan - 9 foizga kamaytirish hamda irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish va beton qoplamali kanallar ulushini 38 foizdan - 50 foizga oshirish.	II yarim yillikda	Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i (F.Siddiqov) Barcha tuman hokimliklari
8	Viloyatda mavjud 513 ming gektar sug‘oriladigan maydonlardan jami sho‘rlangan 217 ming gektar (jumladan, kuchsiz, o‘rta va kuchli) sho‘rlangan maydonlar ulushini Davlat dasturi asosida amalga oshiriladigan tizimli ta‘mirlash-tiklash hamda klasterlar, fermerlar hisobidagi ob‘yektlarda tozalash tadbirlari natijasida 216 ming gektargacha sho‘rlangan maydonlar ulushini qisqartirish.	II yarim yillikda	Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i (F.Siddiqov) Barcha tuman hokimliklari
9	Viloyatda II yarim yillikda klasterlar, fermer	II yarim	Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari

	xo'jaliklari hisobidagi 446 km xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlari kanal, ariqlarni mexanizm bilan va 3177,6 km qo'l kuchi yordamida tozalash, ulardagi 1671 dona gidrotexnika inshoot (gidropost), 1241 dona ta'mirlash va suv olish quloqlarini jihozlash ishlarini tashkil etish.	yillikda	havza boshqarmasi boshlig'i (F.Siddiqov) Barcha tuman hokimliklari
10	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining xujjatlari bilan 2026-yilga belgilangan vazifalar va asosiy prognoz ko'rsatkichlar ijrosi, shu jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10 yuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-sonli Farmoni va 1-ilovaga muvofiq tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan Konseptsiyasida belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va indikatorlar ijrosini tizimli ravishda tashkil va ta'minlash. Suvni iqtisod qilish, suv yo'qotishlarini kamaytirish maqsadida yiliga 35 foiz suv yo'qolishi sababli foydali ish koeffitsientini yiliga o'rtacha 1 foizdan oshirib, 2026-yilda 0,67 foizga yetkazish, suv xo'jaligi hisobidagi 262 km kanallarni tozalash, ulardagi 962 dona gidrotexnik inshoot va gidropostlarni ta'mirlash ishlarini tizimli tashkil etish.	II yarim yillikda	Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i (F.Siddiqov) Barcha tuman hokimliklari

Veterinariya xizmatlari va chorvachilikni rivojlantirish			
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2023-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonidan kelib chiqadigan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish. Chorvachilik tarmoqlarida yillik o'sish sur'atlarini kamida 5 foizga yetkazish, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish hamda chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlash.	Doimiy	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi (Sh.Yeshmatov) Barcha tuman hokimliklari
2	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son ijrosini ta'minlash; a) viloyatda davlat veterinariya xizmati va chorvachilik sohasini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini (rivojlantirish konsepsiyasini) bosqichma-bosqich ijrosini ta'minlash; b) viloyatda 2026-yilda chorvachilik yo'nalishi bo'yicha jami 259 ta qiymati 855 mlrd 733 mln loyihalarni amalga oshirishni ta'minlash. Qoramolchilik, 111 ta Qo'y va Echkichilik 109 ta, yilqichilik va tuyachilik 2 ta, Parrandachilik 16 ta,	II yarim yillikda	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi (Sh.Yeshmatov) Barcha tuman hokimliklari

	Baliqchilik 8 ta, Asalarichilik 11 ta va qayta ishlash 2 ta maxalliy dasturlarni amalga oshirishni ta'minlash. v) 2026-yilda chorvachilik fermer xo'jaliklarining 30 tasiga "Naslchilik maqomini berilish"ni taminlash. g) Barcha toifa fermer xo'jaliklarida 2026-2027- yillar chorva qishlovini betalofat o'tkazish maqsadida g'alladan bo'shagan maydonlarning 25 ming 763 ga takroriy makkajo'xori va boshqa chorva ozuqa ekinlarini ekishni tashkil etish. d) Viloyatda chorvachilik fermer xo'jaliklarida 2026-2027-yillar chorva qishlovini betalofat o'tkazish va qishlov davrida yuzaga keladigan muommolarni tezkor xal etish bo'yicha viloyat shtabini tashkil etish.		
3	O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon hamda qarorlaridan kelib chiqqan holda viloyatda veterinariya sohasini rivojlantirish bo'yicha 2026-yil 1-yarim yillikda amalga oshirilgan ishlarni taxlil qilish; a) 2026-yilga mo'ljallangan ustuvor vazifalarni belgilash va ijrosni ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berish; b) viloyat hududida epizootik osoyishtalikni ta'minlash, qo'shni davlatlardan hayvonlarning yuqumli kasalliklari kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida 11 tur diagnostik tekshirish, 10 tur profilaktik emlash	II yarim yillikda	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi (Sh.Yeshmatov) Barcha tuman hokimliklari

	tadbirlarini epizootik nazorat raqamlari asosida o'tkazish; v) 2026-yilda chorva mollariga veterinariya servis xizmatlari ko'rsatish tizimini yanada yaxshilash xamda veterinariya servis xizmatlarini ko'rsatishni joriy yilning 2- yarim yilligida 3 mlrd 856 mln ga yetkazish, xamda 126 ming 565 bosh sigirlarni sun'iy urug'lantirish ishlarini samarali tashkil yetish. Jumladan: Veterinariya uchastkalari orqali 98 ming 214 bosh sigir va urg'ochi tanalarni. Chorvachilik fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jalik korxonalaridagi 28 ming 351 bosh sigir va urg'ochi tanalarni sun'iy urug'lantirishni tashkil yetish. Buning uchun talab yetiladigon 164 ming 534 doza naslli buqa urug'larini xarid qilishni ta'minlash. Jumladan veterinariya uchastka xodimlari tomonidan 127 ming 678 doza, fermer xo'jaliklari tomonidan 36 ming 856 doza naslli buqa urug'larini sotib olishni ta'minlash.		
4	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-avgustdagi PQ-285-son qarori ijrosini ta'minlash : a) Xayvonlarni identifikasiya qilish ularni xisobga olish xisobdan chiqarish uchun (Koson va Nishon) tumanlaridagi shakillangan aholini chorva xayvonlarini identifikasiyadan o'tkazishni ta'minlash.	II yarim yillikda	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi (Sh.Yeshmatov) Koson va Nishon tuman hokimliklari

	b) aholi tomonidan boqib ko'paytiriladigan va saqlanadigan uy xayvonlarini bosqichma bosqich identifikatsiya qilish va ularni elektron xisobini yuritish va tadbirlarini tashkil etish.		
Urug'chilik va yangi navlar seleksiyasi bo'limi			
1	1. Hududlarda 2026-yil hosili uchun urug'lik maydonlardan jamg'arilgan urug'lik donni korxonalar kesimida navi va avlodlari bo'yicha hisobotlarini qabul qilish va tahlil qilish. 2. Tanlovlardan o'tgan urug'chilik subyektlarida gektar mahalliy va xorijiy g'o'za navlari ekilgan maydonlarida 2 - dala monitoring agrotexnik tadbirlar (<i>xorijiy navlar ekilgan urug'lik maydonlar atrofiga "jismoniy va biologik" to'siq vazifasini bajaruvchi kungaboqar, jo'xori, supurgi, romashka ekilgan</i>) kuzatuvlarini o'tkazish. 3. "Urug'chilik to'g'risida"gi qonuni va urug'chilik sohasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. 4. 2026-yil hosili uchun tayyorlanayotgan urug'lik don to'dalarini vernalizatsiya usulida ekish bo'yicha sovitkichli omborxonalarda saqlash tartibini ishlab chiqish. 5. Boshqali don ekinlari urug'chiligi bilan shug'ullanuvchi Ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan	II yarim yillikda	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (O.Boymirov), Agroinspeksiyaning viloyat boshqarmasi (S.Donayev) "Urug'chilikni rivojlantirish markazi" DM viloyat boshqarmasi (Sh.Sultonov) tumanlar hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosarlari

	2026-yil hosildan jamg'arilgan ko'paytirish ko'chatzorlar urug'liklarini elita urug'chilik xo'jaliklari va ilmiy-tajriba stansiyalarida yetishtirish bo'yicha taqsimotni ishlab chiqib tasdiqlash.		
2	1. Urug'chilikka ixtisoslashtirilgan hududlarda 2026-yil g'alla hosildan belgilangan talablar asosida boshqoli don urug'larini yetishtiruvchi subyektlarni tanlab olish uchun tanlovlarini "Ye-urug'" axborot tizimi orqali o'tkazilishini tashkil etish. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-106-son qarori ijrosi yuzasidan urug'lik paxta maydonlari aprobatsiya bo'yicha seminarlar o'tkazish va aprobatsiya tadbirlarini tashkil etish hamda mazkur tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish. 3. Respublikadagi mavjud urug'lik donni qayta ishlash sexlarida 2027-yil hosili uchun urug'lik don tayyorlash saralash, dorilash va qadoqlash ishlarini standart talabida amalga oshirish. 4. 2027-yil hosili uchun tayyorlangan urug'lik bug'doyni vernalizatsiya usulida ekish uchun sovitkichli omborlarda saqlash bo'yicha ishlarni tashkil etish.	avgust	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (O.Boymirov), Agroinspeksiyaning viloyat boshqarmasi (S.Donayev) "Urug'chilikni rivojlantirish markazi" DM viloyat boshqarmasi (Sh.Sultonov) tumanlar hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosarlari
3	1. Urug'chilik subyektlari, ilmiy tadqiqot institutlari va elita urug'chilik xo'jaliklarida ixtisoslashtirilgan	sentyabr	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi

	hududlarda sabzavot, poliz, moyli, dukkakli va ozuqa ekinlari maydonlarida aprobatsiya tadbirlarini o'tkazish. 2. Aprobatsiya natijalariga ko'ra, yaroqli deb topilgan urug'lik yetishtiruvchi subyektlardan 2027-yil hosili uchun urug'lik paxtani nav va avlodlari bo'yicha jamg'arish. 3. O'zbekiston Respublikasi hududida ekishga tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi ekinlari Davlat reestriga don dukkakli ekinlari navlarini kiritish va undan chiqarish bo'yicha Ekspert komissiyasi yig'ilishini o'tkazish.		boshlig'ining birinchi o'rinbosari (O.Boymirov), Agroinspeksiyaning viloyat boshqarmasi (S.Donayev) “Urug'chilikni rivojlantirish markazi” DM viloyat boshqarmasi (Sh.Sultonov) tumanlar hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosarlari
